



NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUZEYLASHTIRISH METODIKASI

Hamidova Dilduza Ulug‘bek qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Miliy

rassomlik va dizayn instituti

Muzeyshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Nomoddiy madaniy merosini muzeylashtirish metodikasi masalalari bayon etilgan. Shuningdek, nomoddiy madaniy merosning muzeylarda saqlash, namoyish etish va ularni kelajak avlod uchun yetkazish muammolari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Nomoddiy madaniy meros, YUNESKO, tarix, milliy qadriyat, an‘ana, muzey, fiksatsiya, omil.

Аннотация: В данной статье изложены вопросы методики музеефикации нематериального культурного наследия. Также изучались проблемы сохранения, демонстрации и передачи нематериального культурного наследия в музеях будущим поколениям.

Ключевые слова: Узбекистан, нематериальное культурное наследие, ЮНЕСКО, история, национальная ценность, традиция, музей, фиксация, фактор.

Abstract: This article outlines the issues of the methodology of museification of intangible cultural heritage. The problems of preserving, displaying and transferring intangible cultural heritage in museums to future generations were also studied.



Keywords: Uzbekistan, intangible cultural heritage, UNESCO, history, national value, tradition, museum, fixation, factor.

This article outlines the issues of the methodology of museification of intangible cultural heritage. The problems of preserving, displaying and transferring intangible cultural heritage in museums to future generations were also studied.

Nomoddiy madaniy meros – insoniyat faoliyatidagi madaniy shakl an’anasida vujudga kelgan jamlanma bo‘lib, o‘ziga xoslik va vorislik tuyg‘ularini shakllantiradi.

O‘zbek xalqi jahonning ilg‘or xalqlaridan biri sifatida o‘zining qadimiy madaniyati va boy an’analariga ega bo‘lib, uning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston milliy madaniyatini yanada rivojlantirish, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy bilimini oshirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini o‘rganish, asrab-avaylash hamda ommalashtirish hamda ilmiy tadqiq qilish yanada dolzarbdir.

Nomoddiy merosni o‘rganish muammosini o‘zi, bir qator tarix, qadimshunoslik, muzeyshunoslik, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik va jamiyatshunoslik kabi fanlarni o‘z ichiga oladi. Lekin, shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda tadqiqot jarayonlariga innovatsion g‘oya va texnologiyalar, informatika ham jalb qilinmoqda. Bu borada moddiy ta’minotni yuzaga keltiruvchi yo‘nalish – tarixiy-madaniy turizm bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda etnografik muzeyshunoslik sohasining rivojiga ehtiyoj katta desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki moddiy merosni keyingi davrlarga oid kolleksiyalarni to‘plov ishlarini yo‘lga qo‘yish, bir tizimga solish, hozirgi globallashuv jarayonida yo‘qolib borayotgan nomoddiy merosni muzeylashtirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, globalizatsiya jarayonida har bir xalqni milliy xususiyatlarini saqlab qolishda, ularni kelajak avlodga yetkazib berishda muzeyshunoslikning o‘rni nihoyatda katta. O‘zbekiston muzeylarining qanday turida bo‘lmasin, ekspozitsiya yaratishda



etnografik predmetlardan foydalanilganini ko'rish mumkin. Ammo faqat sanoqli muzeylardagina etnografik kolleksiyalar mavjud. Ko'plab o'lkashunoslik, badiiy, tarix muzeylarida ular libos, uy-ro'zg'or buyumlari, mis buyumlar, zargarlik buyumlari kabi turlarga ajratilib kolleksiya shakllantiriladi.

Muzey ishi uchun "Nomoddiy madaniy meros obyekti" tushunchasi yangilik bo'lmas-da, uning nazariy bazasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bugungi kun muzeyshunoslari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ham shu hisoblanadi.

M.E.Kaulen Madaniy merosni muzeylashtirish usullarining tasnifini ishlab chiqqan bo'lib, unda jonli odamlar tomonidan uzatiladi va qabul qilinadi. Aynan shu nomoddiy meros zamonaviylik sharoitida tirik qolishi va ijodiy xarakterini saqlab qolishi kerak hisoblanadi¹.

Muzey ashyolarini endilikda nafaqat moddiy jihatdan namoyish etish, balki ularni zamonaviy texnika yordamida turli uslublarda targ'ib etish imkoni tug'ildi. Hozirgi vaqtda muzey ishida zamonaviy texnologiyalarni o'rni va ahamiyati juda yuqori bo'lib bormoqda².

Nomoddiy meros obyektlarini muzeylashtirish bo'yicha quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rish mumkin:

mavjud muhitda muzey ahamiyatiga ega nomoddiy meros obyektlarini aniqlash;

obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni tuzatish nomoddiy meros obyektlari to'g'risidagi guvohnomaning moddiy tashuvchilariga mahkamlash;

ushbu nomoddiy obyekt bilan bog'liq moddiy obyektlarni to'ldirish.

aktuallashtirish-madaniy merosni zamonaviy madaniy makonga saqlash va kiritish faoliyati, uning obyektlarining ijtimoiy-madaniy rolini faollashtirish va ularni talqin qilish orqali.

Nomoddiy obyektlarni muzeylashtirishdagi asosiy qiyinchiliklar ularning moddiy ifoda shakliga ega emasligidir. Agar muzey ashyolarini saqlash usuli bir necha o'n yilliklar

¹ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России... – С.106–108.

² Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги /Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – Б.4.



davomida ishlab chiqilgan bo'lsa, endilikda nomoddiy ashyolarni saqlash usuli hamda muzeylashtirish jarayoniga ham e'tibor berilmoqda³.

Masalan, nomoddiy meros toifalariga:

jismoniy shaklda ifoda etish muayyan inson jamoasining jihatlari va an'analari (marosimlar);

jismoniy shaklga kiritilmagan ifoda shakllari (til, qo'shiqlar, og'zaki xalq ijodi;

moddiy madaniy merosni tashkil etuvchi obyektlarning ramziy va metaforik ma'nolarini kiritiladi⁴.

Shu bilan birga mavjud muhitda nomoddiy obyektlarni aniqlash, qoida tariqasida, ekspedisiya tadqiqotlari paytida amalga oshiriladi. Muzey ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy obyekt, yuqorida aytib o'tilganidek, ma'lum bir qiymatga ega bo'lishi kerak (ko'pincha tarixiy yoki yodgorlik), shuningdek, ekspresivlik, jalb qilish, vakillik xususiyatlaridan kelib chiqadigan informasion xususiyatga ega bo'lishi kerak. Obyektlarni aniqlash usullari so'rov va kuzatuv bo'ladi.

Muzey ishida nomoddiy meros obyektlarining joyini analiz qilishdan avval ularni muzey predmeti sifatida aniqlab olish zarur. Albatta, bir qarashning o'zida muzeyda ideal obyektни tasavvur qilish qiyin. Bunday muammo yuzaga kelmasligi uchun obyektни an'anaviy ko'rinishida saqlash maqsadga muvofiqdir.

Nomoddiy meros obyektlari muzey obyekti sifatida qabul qilinishida *fiksasiya, revitalizasiya, modellashtirish, konstruksiya qilish* kabi bir necha boschiqlardan o'tadi. Jumladan, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

fiksasiya (foto-suratga olish)– obyektни maishiy muhitdan vositasiz o'zgartirish orqali muzey obyekti holatiga o'tkazish;

revitalizasiya (qayta tiklash) – qat'iy ilmiy asosda nomoddiy meros obyektlarini

³ Методика музеефикации нематериального наследия. https://studme.org/382674/kulturologiya/metodika_muzeefikatsii_nematerialnogo_naslediya.

⁴ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России...– С. 71-84.



rekonstruksiya qilish;

modellashtirish – obyektlarni real sharoitda imitatsiya (o‘xshash) ko‘rinishida talqin etish;

konstruksiyalash – moddiy va nomoddiy meros elementlarini muzey uchun ishlab chiqilgan konsepsiyasi asosida yangi obyektlarni yaratish uchun foydalanishni taklif etadi⁵.

Haqiqatdan ham, muzeyning nomoddiy meros obyektlarini klassifikatsiya qilish (tasniflash) uchun muzeylashtirishda qo‘llanilgan metod(uslub)i asos bo‘lib xizmat qiladi. Madaniy meroslarni turi bo‘yicha obyektlarni ajratish klassifikatsiyaning navbatdagi asosi sanaladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning xuquqiy asoslari ishlab chiqilganligi, milliy an‘ana, amaliy san‘atga doir bilim va ko‘nikma hamda qadriyatlarning saqlanib qolishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda⁶. Shuningdek, nomoddiy madaniy meros namunalarini YUNESKO ro‘yxati va reyestriga kiritish bo‘yicha ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Ularini umrboqiyashtirishda ilmiy salohiyatga ega soha vakillari, shuningdek, muzeyshunos olimlar bir qator tadbirlarni amalga oshirib kelishmoqda. Muzeylar tarixiy va madaniy predmetlarni saqlash va namoyish etishdan tashqari, ijtimoiy ahamiyatga ega ma‘lumotlarni jamlagan obyektlarni ham saqlaydi va ommaga tadbiq qiladi.

Muzey amaliyotida nomoddiy madaniy meros obyekti ikki asosiy shakl doirasida, ekspozitsiya-ko‘rgazma va madaniy-ma‘rifiy faoliyat doirasida taqdim etilishi mumkin.

Ekspozitsiyada nomoddiy madaniy meros obyektlarini guruhlash va matnlarni ekspozitsiya maydoniga kiritish orqali taqdim etiladi. Bu holda asosiy usul talqin qilish usuli hisoblanadi. Ekspozitsiyada nomoddiy obyektlarni taqdim etishda ekspozitsiyani qurishning turli usullaridan foydalanish mumkin:

⁵ Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. – М.: Изд-во «БК», 2003. – 76.

⁶ Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Toshmatov O‘., Isakulova N., – Toshkent: Fan, 2014. – B. 21.



tematik-yagona mavzu bilan birlashtirilgan turli xildagi obyektlarni guruhlash;
ansambl-obyektlarni hayotiy munosabatlarini saqlab qolgan holda namoyish etish;
landshaft-panoramalar va dioramalardan foydalangan holda tabiiy yoki ijtimoiy
muhitdagi muzey obektlarini guruhlash orqali modellashtirish.

O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning xuquqiy asoslari
ishlab chiqilgan bo‘lib, milliy an‘ana, amaliy san‘atga doir bilim va ko‘nikma hamda
qadriyatlarning saqlanib qolishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Nomoddiy madaniy
merosni saqlash, o‘rganish, targ‘ib qilish va muzeylashtirish hamda muzeylarda namoyish
etish masalalari bugungi kundagi dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, mustaqillik
yillaridan boshlab bu sohaga jiddiy e‘tibor qaratilayotganligi yuzasidan salmoqli
o‘zgarishlar qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России..– С.108.
2. Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги /Ўқув
кўлланма. – Тошкент, 2013.
3. Методика музеефикации нематериального наследия.
https://studme.org/382674/kulturologiya/metodika_muzeefikatsii_nematerialnogo_naslediya
4. Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – С.84.
5. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М.,
Сундиевой А.А. – М.: Изд-во «ВК», 2003.
6. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Toshmatov O‘.,
Isakulova N., – Toshkent: Fan, 2014.